WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP UNDER LABOUR MARKET TRANSFORMATION: A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE EXPERIENCE OF CHINA AND UZBEKISTAN

Khasanova Shakhzoda Sarvar kizi

an Independent Researcher at the Department of «Labour Economics and Strategic Management» Tashkent Branch of the Plekhanov Russian University of Economics

sshakhzoda@yahoo.com **ORCID: 0009-0000-4452-0073**

Annotation

This article presents a comparative analysis of the development of women's entrepreneurship as an alternative mechanism for achieving gender equality under conditions of labour market transformation, using the experience of China and Uzbekistan as case studies. The aim of the study is to determine to what extent entrepreneurship can serve as an effective pathway for enhancing women's economic independence at a time when the gender gap in the traditional wage labour market persists in both countries.

Keywords

women's entrepreneurship, labour market transformation, gender equality, China, Uzbekistan, care economy, institutional support, Women Business and the Law

MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGI: XITOY VA O‘ZBEKISTON TAJRIBASINING QIYOSIY TAHLILI

Xasanova Shaxzoda Sarvar qizi

G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali «Mehnat iqtisodiyoti va strategik menejment» kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

sshakhzoda@yahoo.com **ORCID: 0009-0000-4452-0073**

Annotatsiya. Mazkur maqolada ayollar tadbirkorligining rivojlanishi mehnat bozori transformatsiyasi sharoitida gender tengligiga erishishning muqobil mexanizmi sifatida Xitoy va O'zbekiston tajribasi misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi ikkala mamlakatda ham an'anaviy yollanma mehnat bozoridagi gender farq saqlanib qolayotgan bir paytda, tadbirkorlik ayollarning iqtisodiy mustaqilligini oshirishning qay darajada samarali yo'li bo'la olishini aniqlashdan iborat.

Kalit so‘zlar: ayollar tadbirkorligi, mehnat bozori transformatsiyasi, gender tengligi, Xitoy, O'zbekiston, parvarishlash iqtisodiyoti, institutsional qo'llab-quvvatlash, Women Business and the Law

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОПЫТА КИТАЯ И УЗБЕКИСТАНА: ЖЕНСКОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ РЫНКА ТРУДА

Хасанова Шахзода Сарвар кизи
самостоятельный соискатель кафедры «Экономика труда и стратегический менеджмент» Ташкентского филиала РЭУ им. Г.В. Плеханова.
sshakhzoda@yahoo.com **ORCID: 0009-0000-4452-0073**

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный анализ развития женского предпринимательства как альтернативного механизма достижения гендерного равенства в условиях трансформации рынка труда на примере опыта Китая и Узбекистана. Цель исследования заключается в определении того, насколько предпринимательство может служить эффективным путём повышения экономической самостоятельности женщин в условиях, когда в обеих странах сохраняется гендерный разрыв на традиционном рынке наёмного труда.

Ключевые слова: женское предпринимательство, трансформация рынка труда, гендерное равенство, Китай, Узбекистан, экономика заботы, институциональная поддержка, Women Business and the Law

KIRISH

Hozirgi vaqtda mehnat bozori transformatsiyasi sharoitida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish orqali gender tengsizlikni qisqartirish masalasi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda raqamlashtirish, xizmat ko‘rsatish sohasining kengayishi va platforma iqtisodiyotining rivojlanishi ayollar uchun an’anaviy yollanma mehnatdan tashqari muqobil iqtisodiy faoliyat yo‘llarini ochib bermoqda. O‘zbekistonda so‘nggi besh yilda tadbirkor ayollar soni yetti barobar oshgan (2020 yilda 300 mingdan 2024 yilda 2,1 millionga), biroq bu o‘sish yollanma mehnat bozoridagi gender farqni avtomatik ravishda bartaraf etmayapti. Xitoy tajribasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlikning tez o‘sishi va yollanma mehnat bozoridagi barqaror tengsizlik parallel kechishi mumkin, shu bois tadbirkorlik gender tengsizlikka nisbatan qanday munosabatda ekanligini uni bartaraf etuvchi yechim sifatidami, yoki unga muqobil, qisman mustaqil yo‘l sifatidami aniqlash katta ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi Xitoy va O‘zbekiston misolida ayollar tadbirkorligining o‘sish dinamikasini yollanma mehnat bozoridagi gender farq bilan qiyoslash, ikkala mamlakatdagi institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimlarini tahlil qilish va xalqaro ilg‘or tajriba asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot ob’yekti sifatida Xitoy va O‘zbekistonda mehnat bozori transformatsiyasi sharoitida ayollar tadbirkorligining rivojlanish jarayonlari, predmeti sifatida esa ayollar tadbirkorligi ko‘rsatkichlari, ularni qo‘llab-quvvatlovchi huquqiy-institutsional mexanizmlar va tadbirkor ayollar duch keladigan to‘siqlarning tarkibi olindi.

Xorijiy tadqiqotchilar Xitoyda ayollar tadbirkorligi va mehnat bozoridagi gender masalalarini turli qirralardan yoritishgan. Forbes jurnalida e’lon qilingan tadqiqotda xitoylik yetakchi investorlar orasida ayollar ulushi (26,7 foiz) AQShdagi shunga o‘xshash ko‘rsatkichdan (5,7–8,3 foiz) sezilarli yuqori ekanligi, shuningdek 2023 yilda dunyodagi o‘nta yetakchi ayol tadbirkordan yettitasi xitoylik bo‘lgani ko‘rsatilgan [Wu, 2025]. China Briefing tadqiqotida raqamli iqtisodiyot ayollar uchun 60 million yangi ish o‘rni yaratgani qayd etilgan [China Briefing, 2025]. Rossiyalik va xitoylik tadqiqotchilar Tsygankova I.V. va Xuan In hammuallifligidagi tadqiqotda Xitoy an’anaviy yollanma mehnat bozorida vaziyat sezilarli yomonlashgani ta’kidlanadi [Tsygankova, Xuan In, 2022].

Xitoyda 1990–2025 yillar oralig‘ida yollanma mehnat bozoridagi LFPR (mehnat bozoridagi ishtirok darajasi) gender farqi 9,4 foiz punktdan 2019 yilda 14,1 foiz punktgacha kengaygan, faqat so‘nggi yillarda 10–11 foiz punktgacha qisman qisqargan [ILO, 2021]. Bu dinamika shuni ko‘rsatadiki, bozor islohotlari chuqurlashgan sari gender farq dastlab kengaygan, faqat maqsadli davlat siyosati (raqamli iqtisodiyot orqali yangi ish o‘rinlari, tadbirkorlikni rag‘batlantirish) natijasida so‘nggi yillarda qisman qisqargan.

O‘zbekiston bo‘yicha eng to‘liq va dolzarb birlamchi manba BMT Taraqqiyot dasturining 2025-yilgi "O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligi: tahlil va tavsiyalar" hisobotidir. Ushbu hisobot Jahon banki WDI va WBL ma’lumotlar bazalari, Markaziy bank statistikasi, hamda 4019 respondentni qamragan original so‘rov va fokus-guruh natijalariga asoslanadi [UNDP, 2025]. Hisobotga ko‘ra, O‘zbekistonda korxonalarning atigi 26 foizida ayol asosiy egalardan biri va atigi 12 foizida bosh direktor ayol hisoblanadi - bu ko‘rsatkich bo‘yicha O‘zbekiston nafaqat dunyo o‘rtachasidan (34% va 19%), balki Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Rossiyadan ham orqada qolmoqda.

So‘rov natijalari muhim xulosani ochib berdi: respondentlarning 48 foizi ish va oila o‘rtasidagi muvozanatni "katta yoki juda katta muammo" deb baholagan bo‘lsa, atigi 32 foizi buni kichik muammo yoki umuman muammo emas deb hisoblagan. Aksincha, moliyaviy resurslardan foydalanishni faqat 41 foizi jiddiy muammo deb baholagan, 49 foizi esa buni kichik muammo yoki muammo emas deb ko‘rsatgan [UNDP, 2025]. Bu natija global "Women, Business and the Law 2026" hisobotidagi xulosa bilan bir xil yo‘nalishda: institutsional-huquqiy islohotlar moliyaviy to‘siqlarni muvaffaqiyatli qisqartirgan, biroq parvarishlash yuki bilan bog‘liq ijtimoiy-madaniy omillar o‘zgarishsiz qolmoqda [World Bank, 2026]. Hududiy kesimda Surxondaryo, Andijon va Farg‘onada muammolar milliy o‘rtachadan yuqori, Qashqadaryo, Navoiy va Toshkent shahrida esa nisbatan qulay sharoitlar qayd etilgan.

Shuningdek, tadbirkorlik tarkibi tahlil qilinganda muhim tafovut ko‘zga tashlanadi: o‘zini-o‘zi band qilganlar orasida ayollar ulushi 42 foizni, yakka tartibdagi tadbirkorlar orasida 43 foizni tashkil etsa, yuridik shaxs (korporativ) tadbirkorlar orasida bu ko‘rsatkich atigi 17 foizga tushadi. Bu naqsh ayollarning norasmiy va kichik shakldagi tadbirkorlikda ustunligi, korporativ darajada esa orqada qolishi Xitoyda kuzatilgan tendensiyaga o‘xshash: umumiy tadbirkorlik ko‘rsatkichlari yaxshi bo‘lsa-da, yuqori boshqaruv darajasidagi gender assimetriya saqlanib qolmoqda.

Xalqaro tajriba (Finlyandiya, Shimoliy Makedoniya) shuni tasdiqlaydi: Finlyandiyada dunyoda gender tengligi bo‘yicha yetakchi mamlakatlardan birida tadbirkorlik muhitining qulayligi aynan ijtimoiy siyosat (bola parvarishi, moslashuvchan ta’til tizimi) bilan uyg‘unlashtirilgani hisobiga erishilgan [OECD, EU, 2018]. Aksincha, Shimoliy Makedoniya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ayollar tadbirkorligi strategiyasi (SWED) monitoring ko‘rsatkichlari va maxsus byudjetsiz qabul qilinganda, hamda gender tenglik strategiyasi bilan muvofiqlashtirilmaganda,

kutilgan samarani bermaydi [Risteska, 2023]. O‘zbekiston uchun bu ikki holat orasidagi farq dasturlarning ko‘pligi emas, balki ularning o‘zaro muvofiqlashtirilgani va parvarishlash iqtisodiyoti bilan uyg‘unlashtirilgani muhimligini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Xitoy va O‘zbekistonda ham tadbirkorlikning tez o‘sishi yollanma mehnat bozoridagi gender farqni avtomatik ravishda bartaraf etmaydi ikkala tizim parallel mavjud bo‘lib, ular birgalikda ayollarning umumiy iqtisodiy mustaqilligini shakllantiradi. Shu asosda quyidagi amaliy takliflar shakllantirildi: birinchidan, tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlashni parvarishlash iqtisodiyoti siyosati bilan uyg‘unlashtirish davlat tomonidan moliyalashtiriladigan bolalar va qariyalar parvarishi xizmatlarini kengaytirish; ikkinchidan, moliyaviy sektordagi islohotlarni bank tizimidan tashqariga (sug‘urta, lizing) kengaytirish; uchinchidan, korporativ darajadagi gender assimetriyani maqsadli bartaraf etish ayollar tashkil etgan kichik bizneslarni yuridik shaxs darajasiga o‘sishga rag‘batlantirish; to‘rtinchidan, hududiy tafovutlarni hisobga olgan siyosat yuritish; beshinchidan, dasturlarni monitoring qilish tizimini kuchaytirish har bir davlat dasturi uchun aniq, o‘lchanadigan (SMART) ko‘rsatkichlar joriy etish; oltinchidan, fuqarolik jamiyati tashkilotlarining rolini kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, Xitoy va O‘zbekiston tajribasi birgalikda shuni ko‘rsatadiki, ayollar tadbirkorligi gender tengsizlikni qisqartirishning universal yechimi emas, balki kengroq institutsional muhit ayniqsa parvarishlash yuki taqsimoti va moliyaviy xizmatlar tizimi bilan uyg‘unlashtirilgandagina barqaror natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. International Labour Organisation (ILO). Statistical data on female labour force participation. Geneva: ILO, 2021.

2. Tsygankova, I.V., Xuan In, Degtyarev, N.I. Kachestvo trudovoy zhizni zhenshchin v Kitayskoy Narodnoy Respublike // Ekonomika truda. 2022. №12.

3. China Briefing. Gender Equality in China's Labor Market 2025.

4. Wu, R. Closing The Gap: What Can We Learn About Gender Parity From China And The U.S. // Forbes. March 7, 2025.

5. UNDP. O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligi: tahlil va tavsiyalar. Toshkent: BMT Taraqqiyot dasturi, 2025.

6. Risteska, M. Roadmap for a gender-responsive investment climate in North Macedonia. - European Bank for Reconstruction and Development, London and Skopje, 2023.

7. Organization for Economic Cooperation and Development, European Union. Inclusive Entrepreneurship Policies: Country Policy Assessment Finland, 2018. Paris and Brussels, 2018.

8. World Bank. Women, Business and the Law 2026. Washington, DC: World Bank Group, 2026.